

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-martida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 3379,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,6 % ga o'sdi.


2019 yil yanvar-mart oylari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1804,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga oshdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

|   | mlrd.so'm            |                      | 2018 yil yanvar-martga nisbatan % da |
|---|----------------------|----------------------|--------------------------------------|
|   | 2018 yil yanvar-mart | 2019 yil yanvar-mart |                                      |
| <b>I. YaHM</b>                                    | <b>2771,5</b>        | <b>3379,2</b>        | <b>101,6</b>                         |
| <i>shu jumladan:</i>                              |                      |                      |                                      |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 2513,6               | 3019,0               | 101,7                                |
| Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 257,9                | 360,2                | 101,1                                |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>2513,6</b>        | <b>3019,0</b>        | <b>101,7</b>                         |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                | 313,8                | 396,5                | 102,7                                |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)                | 1230,5               | 1359,8               | 98,1                                 |
| sanoat  | 1047,9               | 1106,3               | 95,7                                 |
| qurilish  | 182,6                | 253,5                | 111,7                                |
| Xizmatlar   | 969,3                | 1262,7               | 106,0                                |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 166,2                | 196,2                | 105,4                                |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 196,7                | 226,3                | 108,6                                |
| boshqa xizmat tarmoqlari                          | 606,4                | 840,2                | 105,3                                |

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'ati – 102,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi 13,1 %), qurilish – 111,7 % (8,4 %) hamda xizmatlar tarmog'i – 106,0 % (41,9 %). Sanoat tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 foizli punktga kamayish kuzatilib, o'sish sur'ati 95,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi 36,6 %) tashkil qildi.

### 2019 yil yanvar-martda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlar




Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa 10,7 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,6 % punktga oshdi va hisobot davrida 13,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 4,0 % punktga kamaydi va 45,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 41,9 % ni tashkil etdi va 2018 yil mos davri (38,5 %) bilan tasdiqlanganda 3,4 % punktga ko`paydi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,5 % ni (2018 y. yanvar-mart – 6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,5 % ni (7,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 27,9 % ni (24,1 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2018 yil  
yanvar-mart**



**2019 yil  
yanvar-mart**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma  
axborot-tahliliy ishlar bo'limi**

**Tel.: (0-361) 222-74-58;**

**(0-371) 230-82-03**